Mazkur sharoitda auditorlik tekshiruvlarining natijasini aks ettiruvchi auditorlar va auditorlar yordamchilari tomonidan o'zlariga berilgan topshiriqlar bo'yicha tuziladigan auditor yoki yordamchi auditor hisobotlarining shakli, tarkibiy tuzilishi va ularni umumlashtirishning xalqaro mezonlar asosida tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan asosiy e'tibor auditor va yordamchi auditorlarning hisobotlari asosida umumiy audit qilingan subyekt bo'yicha auditorlik xulosasini tuzishning hozirgi holatini tahlil qilish, shu asosda uning mazmuni hamda umumlashtirish bosqichlarini takomillashtirish masalasiga qaratiladi. Auditorlik xulosalarining tarkibini ko'rib chiqishda asosiy e'tibor ularning mazmuni va tarkibiy tuzilishiga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi auditorlik faoliyatini tashkil etish va auditorlik xulosasini shakllantirish jarayoni to'g'risida rossiyalik taniqli iqtisodchi-olimlar A.D. Sheremet va V.P. Suyslar tomonidan qayd etilishicha: "Keyingi yillarda amalga oshirilgan ishlar jumlasiga auditorlik faoliyatining huquqiy asoslarini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirish jarayoniga oid qabul qilingan bir qator o'zgarishlarni sanab o'tishimiz mumkin. Shu jumladan 2001-yilning 7-avgustida №119-FQ 'Rossiya Federatsiyasining auditorlik faoliyati to'g'risida'gi Qonunning yangi tahririning qabul qilinishi muhim masala hisoblanadi. Ushbu Qonunning kuchga kirishi munosabati bilan auditorlik xizmati rivojlanishi bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, auditorlik xulosalari va ularni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Auditorlik xulosasi auditorlar tomonidan tekshirish natijalariga ko'ra tuzilib, unda moliyaviy hisobotlarning ko'rsatkichlarini tasdiqlovchi ma'lumotlar mujassamlashadi"¹.

Ushbu masalada auditorlik xulosalarining maqsadi va vazifalari to'g'risida V.I. Podolskiy va I.V. Fedorenkolar tomonidan quyidagicha fikr bildirilgan: "Auditorlik xulosasining mohiyati va uning asosiy mazmuniga doir amalga oshirilgan birinchi qadam Rossiya Federatsiyasida amal qilayotgan milliy auditorlik faoliyati (standart) qoidalarini ekspertiza qilish orqali auditorlik xulosasi tushunchasiga aniqlik kiritilganidir. Keyingi qadam sifatida litsenziyaga ega auditorlik tashkilotlari va mustaqil auditorlar tomonidan faoliyat natijasi bo'yicha tegishli hisobot shakli hamda uni taqdim etish tartibi ishlab chiqildi. Uchinchi qadamda esa Moliya vazirligi qoshida markaziy attestatsiya-litsenziyalash komissiyasi tashkil etilib, uning vazifasi auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish va auditorlarni sertifikatsiyalashdan iboratdir. Ushbu komissiya xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bo'yicha moliyaviy hisobotlar audit doirasida auditorlik xulosalarining asosiy shakli va uning mohiyatini belgilab bergan. Auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi huquq buzilishlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar, shuningdek auditorlik tekshiruvini o'tkazish natijasida olingan va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos bo'ladigan boshqa axborotlardan iborat bo'lgan hujjat auditorlik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi"². Demak, ushbu mualliflar tomonidan auditorlik tashkilotlarining xalqaro audit standartlarini qo'llashi natijasida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarga berilgan auditorlik xulosalari chet mamlakatlarda tayyorlangan moliyaviy hisobotlarga berilgan auditorlik xulosalari bilan bir xil kuchga ega bo'lish imkoniyati yaratilishi ta'kidlangan. Natijada auditorlik tekshiruvlari sifatini oshirish va ularning xalqaro darajada tan olinishiga erishish mumkinligi bo'yicha ijobiy fikr bildirilgan.

Lekin ayrim iqtisodchi-olimlar tomonidan, masalan, professor Mirgorodskaya T.V. tomonidan auditorlik xulosasi tushunchasining juda tor doirada talqin qilingani kuzatiladi. Unga ko'ra, "Auditorning yozma hisoboti deb audit jarayonida olingan axborotlar asosida tuzilgan rahbariyatga murojaat shakli tushuniladi. Ushbu yozma axborotda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini audit qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarning yozma ifodasi beriladi", degan fikr ilgari surilgan.³ Lekin ushbu fikr auditorlik xulosasining bir qismi, ya'ni rahbariyatga xat doirasida chegaralanib qolgan. Shu sababli auditorlik xulosasi tushunchasi to'liq ochib berilmagan va tor doirada talqin qilinganini ko'rishimiz mumkin.

Rossiya Federatsiyasida milliy auditorlik standartlarini ishlab chiqish uchun asos xalqaro audit standartlari hisoblanadi. Shu sababli Rossiya auditorlik faoliyati bo'yicha federal qoida (standartlar)da alohida "xalqaro audit standartlari asosida ishlab chiqilgan" degan jumla kiritildi va ushbu qoida federal qonun bilan mustahkamlandi. Natijada Rossiya hududida xalqaro audit standartlarini to'liq qo'llash uchun Rossiya Federatsiyasining me'yoriy-huquqiy aktlarini moslashtirish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan auditorlik xulosalarini tuzish va ularni taqdim etishga doir me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi⁴. Shunday qilib, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash lozimki, Rossiyada qo'llanilayotgan auditorlik faoliyati bo'yicha federal qoida (standartlar) ni ishlab chiqish jarayonida asosiy qoida sifatida auditning xalqaro standartlari olingan. Ushbu standartlar auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvini amalga oshirish uchun asosiy me'yor bo'lib xizmat qiladi

1 Sheremet A.D., Suys V.P. Audit. M.: INFRA-M, 2009.456s. S.45.

2 Podolskiy V.I., Savin A.A., Sotnikova L.V. i drugiye. Audit./pod red.prof.V.I.Podolskogo. Uchebnik. M.:EKONOMIST, 2005. 494s. S.235.Fedorenko I.V.,Zolotareva G.I. Audit. M.:Infra-M, 2016. 272s. S.18-28.

3 Mirgorodskaya T.V. Audit. Uchebnoye posobiye. M.:KNORUS, 2014. 312s. S. 170.

4 Fedorenko N.V. Audit: Rasshiyayem granitsy nauki. Teoriya i metodologiya. M.: Infra-M, 2016. -100s. S.27-33. Audit. Pod red. A.Ye. Suglobova. M.: Dashkov i K., 2015.-368s. S.45-61.




va auditorlik faoliyati bo'yicha federal qoida (standartlar) auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda dasturiy amal hisoblanadi. Auditorlik tashkilotlari ushbu qoidalar asosida o'zining ichki standartlarini ishlab chiqadi va ushbu standartlarda boshqa masalalar qatorida auditorlik xulosasi hamda uni shakllantirish masalasi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda auditorlik xulosasini shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan matematik modellarni asoslash uchun ma'lumotlar auditorlik tashkilotlari hisobotlari, moliyaviy ko'rsatkichlar bazalari va normativ-huquqiy hujjatlardan olinadi. Olingan ma'lumotlar ekonometrik modellash, regressiya tahlili, nisbiy ko'rsatkichlar dinamikasini solishtirish hamda risk darajasini baholash usullari orqali qayta ishlanadi va ularning auditorlik qarorlariga ta'siri aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Auditorlik tekshiruvi bo'yicha jamlangan auditorlik dalillari asosida auditorlik fikri, ya'ni auditorlik xulosasi shakllanadi. Chunki auditorlik tekshiruvining natijasida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga baho beriladi va ularning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mos kelishi bo'yicha fikr bildiriladi. Auditorlik xulosasining shakllanishida auditorlik tanlash jarayonining to'g'ri tashkil etilishi va tanlash asosida tekshiruvni amalga oshirishning optimal varianti auditorning fikrining obyektivligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli muhim masala — tanlash tartibini va uning algoritmini belgilashdir (1-rasm).



1-rasm. Auditorlik tekshiruvida tanlash asosida tekshiruv o'tkazish algoritmi⁵

Auditorlik xulosasi va uni shakllantirish jarayonida auditorning xo'jalik subyektlari faoliyatining moliyaviy natijalarini tekshirishdagi harakatlar ketma-ketligini quyidagi chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin.

Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish jarayonida ma'lum ketma-ketlik asosida ishlash va uning algoritmini to'g'ri belgilash auditorlik tekshiruvlarining sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, tanlov elementlariga nisbatan auditorlik jarayonlari va protseduralari, tanlov




tekshiruvlari natijalarining tahlili, asosiy jamlanmaga nisbatan ma'lumotlarni taqsimlash kabi jarayonlar bunga kiradi.

Tekshiriladigan obyektlar sonini aniqlashda tanlash asosida tekshiruvni qo'llash imkoniyatlariga taalluqli shartlarning bajarilishini tahlil qilish zarur. Umumiy jamlanma hajmi, har bir obyektning birxillastirish imkoniyati, hisobot davrining qamrovi va shunga o'xshash omillar ana shunday shartlar sirasiga kiradi.

Bundan tashqari, auditorlar tomonidan tekshiruv jarayonini nazorat qilish chog'ida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati bo'yicha daromad va xarajatlar auditi natijalarini baholash ham muhimdir. Masalan, moliyaviy hisobotning barcha muhim sohalari haqiqatdan tekshirilgan yoki tekshirilmaganligi, dalillarni to'plash jarayonini aks ettiruvchi ish fayllari va natijalari tuzilgan yoki tuzilmaganligi, yalpi va tanlash asosidagi tekshiruv xatolari to'g'ri baholangan yoki baholanmaganligi, har bir obyekt bo'yicha xulosalar umumlashtirilgan yoki umumlashtirilmaganligi, xulosalar va ish natijalarining mosligi yoki nomosligi, ular auditorlik fikrini tasdiqlashi yoki tasdiqlamasligini nazorat qilish lozim. Bizning fikrimizcha, ushbu tanlash uslublari ko'p omillarga bog'liq bo'ladi.

Tekshirish uchun tanlanadigan obyektlarni aniqlashda quyidagi uslublardan foydalanish mumkin (2-rasm).

Tekshirish uchun tanlanadigan obyektlarni aniqlash uslublari



2-rasm. Tekshirish uchun tanlanadigan obyektlarning uslublarini tanlash⁶

Xatolar va buzilishlar tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning yakuniy moliyaviy natijalariga — foyda yoki zarariga ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish hamda miqdoriy baholash tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalarini tekshirishning yakuniy bosqichida muhim ahamiyatga ega. Xatolarning umumiy hajmini daromad (zarar) uchun mo'ljallangan jiddiylik darajasi bilan taqqoslash va moliyaviy natijalar salmog'ini tuzatish zarurligi xususida qaror qabul qilish lozim.

Auditor tekshirish natijasi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib, xatolar va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri baholangandan so'ng mijoz rahbariyatiga ma'lum qilish uchun tegishli rahbariyatga xatni tayyorlaydi. Auditorlik xulosasini tuzish borasida ta'kidlash joizki, xulosa audit o'tkaziladigan moliyaviy hisobotning to'g'riligi xususidagi fikrni ifoda etishi zarur. Biroq auditorlik xulosasining mustaqil obyekt sifatida tan olinmasligi holatlari ham uchrashi mumkin.

Mijoz rahbariyatiga yozma hisobot nusxasini auditorlik firmasining ichki standartlari shaklida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Auditorlik faoliyati qonunchiligi va milliy standartlari talablariga muvofiq ochib berilishi shart bo'lgan masalalar bundan mustasno. Odatda auditorlik xulosasi shakli va mazmuniga qo'yiladigan yagona talab auditorlik faoliyatining milliy standartlarida belgilab qo'yiladi. Shu tariqa o'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin: tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalari mijozning samarali faoliyat yuritishini aks ettiradi va majburiy auditorlik tekshiruvi obyektiga aylanadi. Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati, buxgalteriya hisobi yuritilishi va moliyaviy hisobotning o'ziga xos xususiyatlari daromad va xarajatlarni mijoz faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlari sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bois auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va tashkil etish, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi

6 Muallif ishlanmasi



subyektning moliyaviy natijalari auditini o'tkazishda auditorlik jarayonlarini tanlash va qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy izlanish natijalarini shuniko'rsatmoqdaki, auditor tomonidan auditorlik xulosasi uchun modifikatsiyalashgan fikrni shakllantirishda buxgalteriya axborotlarining sifatini va ularning maqsadga muvofiqligini tekshirish, foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan omillarga e'tibor qaratish lozim. Axborotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda subyektiv va obyektiv mezonlardan foydalanish talab etiladi.

Subyektiv mezonlarga buxgalteriya axborotlarining sifatini baholashda foydalanuvchilarning o'z axborot ehtiyojlari va ushbu ehtiyojlarni qondirish darajasi kiradi. Odatda tashqi auditor tomonidan to'plangan ma'lumotlarning sifati muhim o'rin tutadi. Shu jumladan ularning qanchalik darajada ishonchli to'plangan auditorning fikriga ta'sir qiladi. Buxgalteriyadan tashqi audit tomonidan olingan axborotlar sifatini baholashda auditor obyektiv mezonlar asosida baho beradi va natijada auditorlik riski aniqlanadi. Ushbu dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan izlanishlar natijasiga ko'ra, hisob-kitob yo'li bilan obyektiv ma'lumotlar asosida (hisob-analitik ko'rsatkichlar) sodir bo'lgan hodisalar natijasini aks ettirish orqali moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining sifatiga baho beriladi.

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun axborot ta'minotini kengaytirish maqsadida obyektiv mezonlar asosida hisob-kitoblarni asoslangan holda ta'minlash lozim. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda matematik modellar asosida buxgalteriya axborotlarining sifatini baholash metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi va auditorlik riski darajasini minimallashtirishga qaratilgan matematik hisob-kitoblar amalga oshirildi. Bunda quyidagi obyektiv mezonlarga rioya qilinishi belgilandi:

a) auditor tomonidan olingan ma'lumotlarning ishonchliligi;
b) moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining to'g'riligi;
c) olingan axborotlarning o'z vaqtida taqdim etilganligi — ularning mazmuni tahlil natijasi bo'yicha baholanadi.

Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish maqsadida dissertatsiyada quyidagi ko'rsatkichlar asosida model tuzildi va unda asosiy e'tibor quyidagi omillarga qaratildi:

1. Buxgalteriya axborotlarining ishonchlilik mezon.
2. Moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik mezon.
3. O'z vaqtida taqdim etilish buzilishi natijasida boshlang'ich hujjatlar bo'yicha daromad va xarajatlarning umumiy hajmi ishonchlilik mezon.

Birinchi ko'rsatkich bo'yicha tuzilgan modelning umumiy shakli quyidagicha bo'ladi:

$$x_1 = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{|X_i - X_i^*|}{|X_i^*|}, \quad (1)$$

x_1 - Buxgalteriya axborotlarining ishonchlilik mezon, hissasi

(Bunda ushbu ko'rsatkich o'zining qiymatini (0;1) oralig'ida belgilaydi va moliyaviy hisobot ma'lumotlari audit natijasida berilgan ma'lumotdan 2 baravardan ko'proq chetga chiqmaydi deb faraz qilinadi).

n - moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining miqdori.

X_i - buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining xajmi (ming so'm hisobida).

X_i^* - auditor tekshirishi natijasida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining miqdori.

Moliyaviy hisobotning ishonchlilik mezon ko'rsatkichi bo'yicha masalan daromad va xarajatlarni ishonchlilik darajasiga ko'ra quyidagi formuladan foydalanishimiz mumkin

$$x_2 = \frac{d_{\text{даромад}} + d_{\text{харажат}}}{X_{\text{даромад}}^* + X_{\text{харажат}}^*}, \quad (2)$$

x_2 - moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik mezon, hissasi (o'zining qiymatini (0;1) oralig'ida belgilaydi).

$d_{\text{даромад}}$ - boshlang'ich xujjatlar bo'yicha ishonchsiz bo'lgan daromadlar umumiy xajmi.

$d_{\text{харажат}}$ - boshlang'ich xujjatlar bo'yicha ishonchsiz bo'lgan xarajatlar umumiy xajmi.

$X_{\text{даромад}}^*$ - auditorlik tekshiruv natijasida aniqlangan daromad summalar.

$X_{\text{харажат}}^*$ - auditorlik tekshiruv natijasida aniqlangan xarajatlar summalar.

Buxgalteriya axborotlarining o'z vaqtida taqdim etilishi mezoniga ko'ra daromad va xarajatlarni tarkibi va ushbu sohadagi kamchiliklar bo'yicha quyidagicha formulasini ifodalashimiz mumkin.

$$x_3 = \frac{w_{\text{даромад}} + w_{\text{харажат}}}{X_{\text{даромад}}^* + X_{\text{харажат}}^*}, \quad (3)$$

x_3 - buxgalteriya axborotlarining ishonchlilik mezon hissasi (o'zining qiymatini (0;1) oralig'ida belgilaydi).



$\omega_{\text{даромад}}$ -ishonchsiz o'z vaqtidaligi buzilishi natijasida boshlang'ich xujjatlar bo'yicha daromadlarning umumiy xajmi.

$\omega_{\text{харакат}}$ - ishonchsiz o'z vaqtidaligi buzilishi natijasida boshlang'ich xujjatlar bo'yicha xarajatlarning umumiy xajmi.

$X^*_{\text{даромад}}$ -auditorlik tekshiruvi natijasida aniqlangan daromad summalari.

$X^*_{\text{харакат}}$ - auditorlik tekshiruvi natijasida aniqlangan xarajatlar summalari.

Buxgalteriya axborotlarini sifatini baholashni umumlashtirishni tashkil qilish uchun yuqorida sanab o'tilgan mezonlar asosida integral mezonlari aniqlanadi va tahlil qilinadi, bunda asosiy o'rinni axborotlarning muhimlilik darajasi hisoblanadi. Shunday qilib ushbu mezon teng bo'lmagan mezonlar asosida aniqlanadi(ishonchlilik, aniqlik, o'z vaqtidaligi), bunda albatta muhimlilik(uning ahamiyati) har bir mezon bo'yicha aniqlanadi. Ushbu integral sifat mezoni quyidagi o'rtacha arifmetik model asosida hisoblanadi:

$$x = \sum_{t=1}^s v_t x_t \quad (4)$$

x - buxgalteriya axborotlari sifatining integral mezonlari hissasi (o'zining qiymatini (0;1) oraliqda belgilaydi.

x_t - moliyaviy hisobot axborotlari sifatining t xususiy mezonning mazmuni

v_t - moliyaviy hisobot axborotlari sifatining xususiy t mezonning muhimligi.

s - sifat axborotlarining xususiy mezonlarining miqdori.

Shunday qilib axborotlarning sifat mezonlarining darajasini 2 ta guruhga ajratishimiz mumkin:

1.Ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan darajali;

2. Ikkinchi (unchalik muhim bo'lmagan) darajali.

Buxgalteriya axborotlarining muhimligi darajasiga qarab muhim ahamiyatga ega bo'lgan birinchi darajali sifat mezoniga ega bo'lgan ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan va unchalik muhim bo'lmagan axborotlar uchun ikkinchi darajali mezonlar o'rnatiladi. Shu maqsadda sifat mezonining nazorat summasi mezoni modeli bo'yicha, ikkinchi darajali mezonlarni aniqlash va tahlil qilishni talab qiladi:

$$x_{\text{назорат суммаси}} = \sum_{t=2}^s v_t^* x_t \quad (5)$$

$x_{\text{назорат суммаси}}$ -buxgalteriya axborotlarini sifatini nazorat summasini mezoni. (o'zining qiymatini (0;1)

oraliqda belgilaydi.Agarda ushbu holatda $x_{\text{назорат суммаси}}$ = odatda auditorlar tomonidan 5 foizgacha belgilanadi va undan ortiq bo'ladigan bo'lsa, auditorlik tekshiruvdan o'tgan mijoz tomonidan qabul qilinmasligi mumkin, agar 0 bo'ladigan bo'lsa, xato va kamchiliklar yo'qligini va moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarining 100% sifatli ekanligini bildiradi.

v_t^* - xususiy mezonlarning tartibga solish ishlarini bajargandan keyin olingan yangi salmog'ini bildiradi,

bunda $v_t^* = \frac{v'_t}{v^*}$ va $v^* = \sum_{t=2}^s v'_t$

x_1 -xususiy t mezonining moliyaviy hisobotaxborotlarining sifatidagi hissasini bildiradi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning $x_1, x_2, x_3, x_{\text{назорат суммаси}}$ hisob-kitobi natijasida tegishli boshqaruv qarori qabul qilinadi, agarda λ muhimlilikning nisbiy darajasiga nisbatan x yuqori darajada bo'lgan bo'lsa, audit rejasi bosqichlarida aniqlangan bosqichlari asosida auditor tomonidan salbiy xulosa berishi lozim.

Agarda $x < \lambda \leq x_{\text{назорат суммаси}}$ bo'ladigan bo'lsa modifikatsiyalashgan auditorlik xulosasini berishi va agar $x_{\text{назорат суммаси}} \leq \lambda$ va $x \leq$

λ bo'lsa, u holda ijobiy xulosa berishi kerak.

Auditorlik xulosasini va xulosasini shakllantirish audit rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida vujudga keladi.

Auditorlar odatda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot tuzilgandan keyin to audit o'tkazilgan oxirgi kunga qadar amalga oshirilgan to'lovlarni ham tanlab tekshiradi. Bu tekshiruv natijalari hisob ma'lumotlarining ishonchliligini joriy majburiyatlarni moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirishning to'liqligi va haqqoniyligi nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi. Ushbu amallarni bajarish natijasida joriy majburiyatlar to'liq va haqqoniy aks ettirilganligi to'g'risida olingan dalillar, moliyaviy hisobot tuzilganidan so'ng to'langan qarzlarga nisbatan yetarli darajada deb baholanishi mumkin. Shundan so'ng auditor to'lovi tasdiqlangan va tasdiqlanmagan qarzlarni summalarining katta - kichikligini baholaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditorlik xulosalarini tayyorlash jarayonida ketma-ketlik va mantiqan bog'liqlilik tamoyillariga amal qilganda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Moliyaviy hisobotlarning o'z vaqtida taqdim etilishi, ya'ni auditorlik tekshiruvini o'tkazish rejasida belgilangan muddatlar davomida sifatli hisobot ko'rsatkichlarini taqdim etish muhim ahamiyatga ega.

2. Subyektning faoliyati auditi jarayonini o'z vaqtida yakunlash zarurligi sababli auditorlik tekshiruvini amalga oshirish uchun xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddati auditorlik tashkiloti bilan oldindan kelishilgan bo'lishi lozim. Chunki kech taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar auditorlik tekshiruvining o'z vaqtida amalga oshishiga salbiy ta'sir qiladi va natijada qaror qabul qiluvchi shaxslar axborotni o'z vaqtida olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

3. Hisobotlar va ularda aks ettirilgan ma'lumotlar aniq, izchil bayon etilishi, keltirilgan dalillar mantiqqa zid kelmasligi kerak.

Bu yerda shuni qayd etish lozimki, auditorlik xulosasi va moliyaviy hisobotlarda berilayotgan axborot foydalanuvchilar uchun sodda va tushunarli bo'lishi talab etiladi. Jadval, chizma, diagramma va fotosuratlardan tegishli hollarda kompleks axborotni taqdim etish va umumlashtirish maqsadida foydalanish mumkin, ularning hisobotdagi vazifasi aniq ko'rsatilishi zarur. Hisobotlar ulardan foydalanuvchilarning bilim darajasi, manfaatdorligi va hisobot bilan tanishish uchun mavjud vaqtiga mos keladigan tarzda tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, dastlabki ma'lumotlar va xulosalar to'plangan dalillar asosida tekshiriladi va tekshirilayotgan subyekt rahbariyati bilan muhokama qilinadi, bu esa ma'lumotlar va xulosalarning to'g'riligi hamda to'liqligini tasdiqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, xulosalarda auditor tomonidan olingan ma'lumotlarga asoslangan dastur bo'yicha chiqarilgan mantiqiy natijalar jamlanadi. Auditorlik xulosasining kuchli jihatlari ma'lumotlarni tasdiqlovchi dalillarning ishonchliligiga hamda xulosalarni shakllantirishda qo'llangan mantiqiy asosga bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит. М.: ИНФРА-М, 2009.456с. С.45.
2. Подольский В.И., Савин А.А., Сотникова Л.В. и другие. Аудит./под ред.проф.В.И.Подольского. Учебник. М.:ЭКОНОМИСТ, 2005. 494с. С.235.Федоренко И.В.,Золотарева Г.И. Аудит. М.:Инфра-М, 2016. 272с. С.18-28.
3. Миргородская Т.В. Аудит. Учебное пособие. М.:КНОРУС, 2014. 312с. С. 170.
4. Федоренко Н.В. Аудит: Расширяем границы науки. Теория и методология. М.: Инфра-М, 2016. -100с. С.27-33. Аудит. Под ред. А.Е. Суглобова. М.: Дашков и К., 2015.-368с. С.45-61.
5. Аудит ва сифат назоратининг халқаро стандартлари. 2012 йил нашри. 1қисм. 2-жилд. Тошкент:БАМА, 2014. Б. 571-572.
6. ХАС 315, "Муҳим бузиб кўрсатишлар рискларини тадбиркорлик субъекти ва унинг муҳитини билиш асосида аниқлаш ва баҳолаш", 6(б) банди
7. ХАС 330, "Баҳоланган рискларга жавобан аудиторнинг ҳаракатлари", 6 ва 18-бандлар
8. Очилов, Ф. (2024). АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВЛАРИДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРДАГИ ҚИЁСИЙ АХБОРОТЛАРНИ БАҲОЛАШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(1), 437-444.
9. ugli Ochilov, F. S. (2023). IMPROVING THE AUDIT OF LIABILITIES. SCHOLAR, 1(29), 4-10.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
